



THE HARMONY OF POSITIVISM AND ROMANTICISM IN SHAROF RASHIDOV'S "SONG OF KASHMIR"

Khurshida Maksudovna Radjapboyeva

Independent researcher

Andijan State Medical Institute, Department of Social and Humanitarian Sciences

Andijan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Sharof Rashidov, Song of Kashmir, positivism, romanticism, aesthetic harmony, realistic image, dreams, artistic thought.

Received: 04.10.25

Accepted: 05.10.25

Published: 06.10.25

Abstract: This article analyzes the artistic and aesthetic trends in Sharof Rashidov's "Song of Kashmir". The literary and philosophical essence of the positivist approach and the harmony of romantic images observed in the work are revealed. The high aesthetic level of the work is based on the synthesis of realistic images based on scientific facts by the author with romantic melodies expressing dreams and feelings.

SHAROF RASHIDOVNING "KASHMIR QO'SHIG'I" ASARIDAGI POZITIVIZM VA ROMANTIZMNING UYG'UNLIGI

Xurshida Maxsudovna Radjapboyeva

Ijtimoiy -gumanitar kafedrasi mustaqil izlanuvchisi

Andijon davlat tibbiyot instituti

Andijon, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Sharof Rashidov, Kashmir qo'shig'i, pozitivizm, romantizm, estetik uyg'unlik, realistik tasvir, orzular, badiiy tafakkur.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Sharof Rashidovning "Kashmir qo'shig'i" asaridagi badiiy-estetik yo'nalishlar tahlil qilinadi. Asarda kuzatiladigan pozitivistik yondashuv hamda romantik obrazlar uyg'unligining adabiy-falsafiy mohiyati ochib beriladi. Muallif tomonidan ilmiy faktlarga tayangan realistik tasvirlar bilan orzu va tuyg'ularni ifodalovchi romantik ohanglar sintezi orqali badiiy asarning yuksak estetik saviyasi asoslanadi.

ГАРМОНИЯ ПОЗИТИВИЗМА И РОМАНТИЗМА В «ПЕСНЕ О КАШМИРЕ» ШАРОФА РАШИДОВА

Хуршида Махсудовна Раджапбоева

социально-гуманитарная кафедра, самостоятельный исследователь
Андижанский государственный медицинский институт
Андижан, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Шароф Рашидов, «Песнь о Кашмире», позитивизм, романтизм, эстетическая гармония, реалистический образ, мечты, художественная мысль.

Аннотация: В статье анализируются художественно-эстетические тенденции в произведении Шарофа Рашидова «Песнь о Кашмире». Раскрываются литературно-философская сущность позитивистского подхода и гармония романтических образов, наблюдаемая в произведении. Высокий эстетический уровень произведения основан на синтезе реалистических образов, основанных на научных фактах автора, с романтическими мелодиями, выражающими мечты и чувства.

Kirish. Bugun dunyoda nafasat ilmining rivojlanish uslubi va estetik tamoyillari murakkab va ko‘p qirrali hodisa sifatida keng ilmiy tadqiqotlar doirasida o‘rganilmoqda. Xususan, estetik tahlil ijodkor, badiiy asar va uning qabul qiluvchisi bilan cheklanib qolmay, badiiy madaniyatning rivojlanish tendensiyalari, ijodiy jarayonlar va jamiyatning estetik ehtiyojlari bilan uzviy tarzda amalga oshirilmoqda. Bu borada olib borilayotgan ilmiy izlanishlarda Sharof Rashidovning badiiy-adabiy merosi, ayniqsa uning “Kashmir qo‘shig‘i” asari alohida e‘tibor qozonmoqda. Ushbu asardagi estetik konseptlar va badiiy ifoda vositalari san‘atshunoslik va adabiyotshunoslikda yangi qarashlar, talqin metodlari va ilmiy yondashuvlarni shakllantirishda muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda. Sharof Rashidov – O‘zbek adabiyotida badiiy va publitsistik uslubni uyg‘unlashtirgan ijodkorlardan biridir. Uning “Kashmir qo‘shig‘i” asari Hindiston safaridan olgan taassurotlariga asoslangan bo‘lib, unda faqat kuzatuv emas, balki ilhom, muhabbat va estetik tasvirlar ham asosiy o‘rin egallaydi. Mazkur maqolada asarda namoyon bo‘lgan pozitivizm va romantizm oqimlarining o‘zaro uyg‘unligi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review) Tarixchi olimlar Iskandarov I, Rizayev S, Rashidov A, Rashidova G. Sh, Abdusamadov F, Muzaffarov A, Alimardonov T, Ergashev Sh, Numonzoda S, Qurbanova Sh.D, Xasanova Glar tomonidan e‘lon qilingan qator ilmiy ishlarda Sh. Rashidovning hayot yo‘li, davlat va jamoat arbobi sifatidagi faoliyati, uning siyosiy portretiga chizgilar, O‘zbekistonning xalqaro aloqalarida tutgan o‘rni, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi, ayrim hollarda esa badiiy ijodi ham tahlil qilingan. Xorijiy tadqiqotlarda ham Sharof Rashidovning O‘zbekiston taraqqiyotida muhim

rol o'ynagani e'tirof etilib, uning O'zbekiston Kommunistik partiyasining birinchi kotibi, 1961–1983-yillarda KPSS MK Siyosiy byurosining a'zoligiga nomzod sifatidagi faoliyati, shuningdek, sovet tashqi siyosatida muhim o'rin tutgan siyosiy rahbarlardan biri sifatidagi qarashlari ko'rib chiqilgan. Adabiyotshunos olimlar Mirazizova R, Eshimov F, Muxamedova G. I, Xodjimetova D.D, Rashidova Sh. R, Bozorov E, Jamol Kamol, Ergashev Sh, Pardayeva D. R, Fayzulayev Blar tomonidan olib borilgan izlanishlarda Sharof Rashidov asarlarining tili va uslubi, ularda milliylik va baynalmilallikning aks etishi, yozuvchining ijod yo'li, adabiy-tanqidiy qarashlari kabi jihatlariga e'tibor qaratilgan. Shuningdek, Sh. Rashidovning asarlari asosida bo'lajak pedagoglarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga doir tadqiqotlar olib borilgan. Shu bilan birga, badiiy publitsistik asarlar ham yaratilgan bo'lib, ularda asosan Sh. Rashidov haqidagi xotiralar, adib hayoti bilan bog'liq voqealar bayoni, unga bag'ishlab yozilgan badiiy asarlardan parchalarga keng o'rin ajratilgan. G. T. Maxmudova va O. J. O'roqovanning ilmiy tadqiqotlarida Sharof Rashidovning shaxsiyati, fenomeniga xos jihatlar, yozuvchi adabiy merosining falsafiy-estetik talqini hamda poetik tafakkuri kabi jihatlar tahlil qilingan. K. S. Mahmudovning tadqiqotlarida totalitarizm sharoitida Sh. Rashidovning siyosiy liderlik faoliyati va uning ziddiyatli xususiyatlari, Sh. Rashidovning rahbarlik uslubida baynalmilal madaniyat va milliy rahbarlik faoliyati, shuningdek, mustamlakachilik sharoitida Sh. Rashidovning yetakchilik roliga e'tibor qaratilgan.

Tahlil va natijalar. Asarda pozitivistik qarashlar real voqealar, faktlar, ijtimoiy-siyosiy holatlarning aniq tasviri orqali ifodalanadi. Romantizm esa tabiat tasviri, xalqning fazilatlarini, ilhom va ideallar orqali aks ettiriladi. Rashidov o'z kuzatuvlarini faqat publitsistik shaklda emas, balki poetik, his-tuyg'uga boy tasvirlar bilan boyitgan. "Kashmir qo'shig'i" dagi ikki oqim – pozitivizm va romantizm – bir-birini to'ldiradi. Pozitivizm asarning asosiy tayanchi bo'lib, muallif faktlarga suyanadi, real hayotni tahlil qiladi.

Adabiyot inson tafakkurining in'ikosidir. Uning rivojlanishida turli estetik yo'nalishlar muhim rol o'ynaydi. XX asr o'zbek adabiyotining yorqin namoyandasi Sharof Rashidov o'zining "Kashmir qo'shig'i" asarida pozitivizm va romantizm oqimlarini o'zaro uyg'unlashtirgan holda betakror badiiy makon yaratgan. Ushbu maqolada mazkur ikki oqimning asardagi ifodasi, ularning uyg'unligi hamda estetik ta'siri tahlil qilinadi.

Pozitivizm – ilmiy asoslangan realizm

Pozitivizm – bu voqelikni kuzatuv, tajriba va ilmiy tafakkur orqali tushunishga asoslangan yondashuvdir. Rashidov "Kashmir qo'shig'i" asarida hind xalqining ijtimoiy-siyosiy hayoti, tarixiy taraqqiyoti va tabiiy muhitni aniq, hujjatli uslubda tasvirlaydi.

- Geografik, madaniy va tarixiy realiya: Asarda Kashmirning geografik joylashuvi, iqlimi, tabiiy boyliklari, xalqning urf-odatlarini faktlarga asoslangan holda tasvir beradi. U hududning tabiati, aholisi, madaniyati va tarixiy voqealarni o'rganib, badiiy shaklda aks ettirdi.

- Ijtimoiy muammolar tahlili: Muallif hind xalqi hayotidagi ijtimoiy tengsizlik, millatlararo ziddiyatlar, mustamlakachilik oqibatlarini ratsional yondashuvda ochib bera olgan.

- Kuzatuv va tafakkur: Asardagi tafsilotlar Rashidovning shaxsiy sayohati, kuzatuvlar vajurnalistik tajriba bilan boyitilgan.

Romantizm – ilhom va tuyg'ular uyg'usi

Romantizm asarda inson qalbining orzu, shijoat va go'zallikni izlash ehtiyoji orqali ifodalanadi:

- Kashmir go'zalligiga maftunlik: Tabiat manzaralari- tog'lar, vodiylar, gular- nafaqat tasvir, balki badiiy timsol sifatida beriladi. Ular orzu, osoyishtalik va ilhom manbaidir.

- Ideallar olami: Rashidov Kashmir orqali tinchlik, xalqlar do'stligi, ezgulik va insoniy mehr kabi umumiy ideallarni ifodalaydi. Bu esa romantizmning asosiy mohiyatidir.

- She'riy ifoda: Proza bo'lishiga qaramay, asarning tilida musiqiylik, ohangdorlik, obrazlardagi poetiklik kuchli. Bu – badiiy ilhom mahsuli.

Estetik uyg'unlik – ratsional va hissiy yondashuv birligi

Asar kuchi aynan ikki oqim – pozitivizm va romantizmning uyg'unligida mujassam. Quyidagi jadval bu uyg'unlikni ko'rsatadi:

Pozitivistik yondashuv	Romantik yondashuv	Uyg'unlik
Aniq kuzatuvlar, faktlar	Timsollar, tuyg'ular	Haqiqatning go'zal talqini
Ijtimoiy-siyosiy anglash	Orzular va ilhom	Real hayotga estetik yondashuv
Tafakkurga asoslangan uslub	Qalb kechinmalari	Aql va qalb uyg'unligi

“Kashmir qo'shig'i” asarida ushbu jozibador jummalarga e'tiborni qaratsak: “Tabiatning barcha go'zalliklarini o'zida mujassamlantirgan va ko'm- ko'k vodiyni husniga husn qo'shgan Gullar bog'ida sevgi va hayot musiqasi tantana qilardi. Dillarga orom bag'ishlovchi kuylar goh qizlarning so'lim ovozlarga, goh shaydo bulbullarning gullar o'yiiniga mast bo'lib sayrashlariga, goh qirlar bag'rida cho'ponlarning naylaridan taralgan dilbar ohanglarga jo'r bo'lar edi.” Adib ushbu asarda tabiatning go'zalligi, uning insonning his- tuyg'ulariga ta'siri va tinchlikni izlash haqidagi g'oyalar orqali Kashmirni bir metafora sifatida ishlatadi. Asarda Kashmirning jozibasi va uni o'zida mujassam etgan estetik kuch, insonning ruhiy holati va ichki dunyosi bilan bog'liq qilib ko'rsatilgan. Bu o'ziga xos tarzda tabiat va inson ruhiy holatining uyg'unligini ifodalaydi. Gullarning o'ziga xos tarannumi, Nargiz, Binafsha, Lola, Atirgul shodon

o'ynashlarida naqadar yoqimli hissiyot borligini, undan baxra olib, zavqlanib, tinch, osuda xayot hukm surayotganligini tasvirlab beradi.

“Kashmir qo'shig'i” asarini mutolaa qilar ekanmiz afsonaviy obrazlar duch kelamiz. Asalarilar podshohi Bambur, gullar malikasi “Nargiz” ijobiy qahramonlar timsoli bo'lsa, ularga zid bo'lgan siymolar Bo'ron, zararkunanda Harutlar salbiy qiyofadagi qahramonlar tarzida gavdalandiriladi. Muallifning o'ziga xos ijodiy mahorati hamda cheksiz badiiy tafakkuri orqali Bambur bilan Nargiz tarafida dov-daraxtlar, muattar hidlar, dil rishtalari, qushlar, gullar bog'lanib turadi, ularni har qanday vaziyatda himoya qiladi hamda ularga xayrixoh qiyofada tasvirlanadi. Salbiy qahramonlar sanalgan Bo'ron bilan Horutning izmida shamol, vabo, izg'irin va chaqmoq kabi qora ranglardagi qiyofalar talqin etiladi. Sharof Rashidov yuksak badiiy tafakkur kengliklarida qalam tebratar ekan, ona tabiatning jonlanishini, insonlar kabi tilga kirishini, azaliy va abadiy yashash uchun kurashdan iborat hayotbaxsh faoliyatini ramziy obrazlar timsolida o'zining mazkur asariga tengsiz mahorat bilan sindirib yubora olgan. Asarning tili va uslubi o'ziga xosligi, boy va rang-barangligi, muallif tasvir uslubining betakrorligi, majoz, sifatlash, o'xshatishlarga boyligi har kitobxon o'quvchini hamda adabiyotshunos-tanqidchilarni ham o'ziga jalb eta oladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada fanlararo yondashuv (adabiyot va falsafa), obyektivlik, tarixiylik va mantiqiylik, tipologik tahlil, qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

Xulosa va takliflar. Sharof Rashidovning falsafiy-estetik qarashlari o'zbek adabiyoti tarixida estetik kategoriyalarning milliy, ijtimoiy, umumbashariy va axloqiy mazmun-mohiyatini ifoda etishdagi o'rni hamda adib asarlarida insonning voqelikka munosabati va tasavvurini shakllantirishga xizmat qiluvchi ezgu g'oyalarning manba sifatida namoyon bo'lishi bilan ahamiyatlidir. Sharof Rashidovning “Kashmir qo'shig'i” asaridagi badiiy-estetik obrazlarning ijtimoiy-falsafiy mohiyati milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan bo'lib, ulardan milliy tarbiya tizimini yuksaltirishda foydalanishning samarali ma'naviy-ma'rifiy mexanizmlari ishlab chiqilgan. Sharof Rashidovning “Kashmir qo'shig'i” asari o'zbek adabiyotida yangi estetik uyg'unlik namunasi sifatida qadrlanadi. Muallif voqelikni nafaqat kuzatgan, balki qalb ko'zi bilan ko'rgan. Asardagi pozitivistik tafakkur va romantik ilhom uyg'unligi uni ham ilmiy, ham badiiy jihatdan yuksak darajaga olib chiqqan. Bu uyg'unlik orqali Rashidov nafaqat Kashmir go'zalligini, balki inson qalbining ezgu intilishlarini ham yoritgan. ta'lim jarayonida asarni badiiy-estetik tahlil qilish asosida o'quv dasturlariga “Sharof Rashidov poeziyasida tabiat va inson”, “O'zbek adabiyotida borliq falsafasi” kabi mavzularni kiritish; “Kashmir qo'shig'i” asari asosida onlayn adabiy-tahliliy videolavhalar, podkastlar yaratish orqali yosh avlodning estetik didini oshirish; “muzey pedagogikasi” rukni asosida ko'rgazma zallarida “Sharof

Rashidov asri” ekspozitsiyasida “Kashmir qo‘shig‘i — sevgi va Vatan timsoli”, “Rashidov va adabiyot” kabi bo‘limlar tashkil qilish; “O‘zbekiston tarixi” telekanali bilan hamkorlikda “Sharof Rashidov hayoti va merosi”, “Kashmir qo‘shig‘i”ning tarixi”, “Zamondoshlar xotirasida” kabi turkum ko‘rsatuvlar tayyorlash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Rashidov, Sh. Kashmir qo‘shig‘i. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1981.
2. Nazarov, Q. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: O‘qituvchi, 2005.
3. G‘aniyev, B. Estetik qarashlar va adabiy oqimlar. – Samarqand: Zarafshon, 2018.
4. Karimov, A. Sharof Rashidov hayoti va ijodi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2022.
5. Ta’limov, S. “Pozitivizm va romantizmning uyg‘unligi haqida”. // Adabiy tadqiqotlar, 2019, №3.
6. Шароф Рашидов. Кашмир қўшиғи. Тошкент, Ёш гвардия, 1978.